



UDK: 351.778:930.25(575.1)

Jahongir Z. ABDIMURADOV,

Katta o'qituvchi, Perfect-university, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: abdimurodov.j@perfectuniversity.uz, ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-4678-7470>

O'zMU dotsenti, PhD U.Usarov taqrizi asosida

O'ZBEKISTON SSRDA KOMMUNAL XIZMAT TIZIMIDAGI KADRLAR MASALASI (1930-1970-yy.)

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1932-yildan e'tiboran O'zbekiston SSRda kommunal xizmat tizimining shakllanish tarixi, dastlabki davrlardagi kadrlar tanqisligi va uning soha rivojiga ta'siri hamda 1970-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston SSR Kommunal xo'jaligi vazirligi tizimidagi kadrlar ta'minoti, xodimlarning hududiy taqsimoti, jinsi, milliy tarkibi, ma'lumot darajasi va mehnatini rag'batlantirish masalalari arxiv hujjatlari va tarixiy-qiyosiy tahlil usuli orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, Kommunal xo'jaligi vazirligi, kadrlar muammosi, arxiv hujjatlari, hududiy nomutanosiblik, ma'lumot darajasi, mehnatni rag'batlantirish.

THE ISSUE OF PERSONNEL IN THE PUBLIC UTILITIES SYSTEM IN THE UZBEKISTAN SSR (1930s–1970s)

Annotation

This article examines the history of the formation of the public utilities system in the Uzbekistan SSR from 1932 onwards, the shortage of personnel in the early period and its impact on the development of the sector, as well as issues of staffing, territorial distribution of employees, gender, national composition, level of education, and labor incentives within the system of the Ministry of Public Utilities of the Uzbekistan SSR in the second half of the 1970s, based on archival documents and the method of historical-comparative analysis.

Key words: Uzbekistan SSR, Ministry of Public Utilities, personnel problem, archival documents, territorial imbalance, level of education, labor incentives.

КАДРОВЫЙ ВОПРОС В СИСТЕМЕ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА УЗБЕКСКОЙ ССР (1930–1970-Е ГГ.)

Аннотация

В данной статье на основе архивных документов и историко-сравнительного анализа освещаются история формирования системы коммунального хозяйства в Узбекской ССР с 1932 года, кадровый дефицит на начальном этапе и его влияние на развитие отрасли, а также вопросы кадрового обеспечения, территориального распределения, половозрастного и национального состава, уровня образования и стимулирования труда работников Министерства коммунального хозяйства Узбекской ССР во второй половине 1970-х годов.

Ключевые слова: Узбекская ССР, Министерство коммунального хозяйства, кадровый вопрос, архивные документы, региональные диспропорции, уровень образования, стимулирование труда.

Tahlil va natijalar. Sovet davrida O'zbekiston SSR iqtisodiyotining infratuzilma tarmoqlari, xususan, kommunal xo'jalik tizimi shahar va tumanlar aholisining turmush darajasini, sanitariya-gigiyena holatini hamda ijtimoiy farovonligini belgilab beruvchi muhim strategik sohalaridan biri hisoblangan. Biroq, ushbu tarmoqning tashkil topishi va keyingi taraqqiyoti bir qator tizimli, institutsional va kadreviy to'siqlar ostida kechgan.

O'zbekiston SSRda kommunal xizmat ko'rsatish tizimi asosan 1932-yildan e'tiboran alohida tarmoq sifatida shakllana boshlagan [4]. Respublika shaharlarining jadal kengayishi va sanoatlashtirish jarayonlarining boshlanishi kommunal xo'jalikni boshqarish va unga xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarni yaratishni talab etgan edi. Ammo sohaga malakali kadrlar va mutaxassislarni jalb etish mexanizmlarining yetishmasligi, moddiy-texnik bazaning zaifligi hamda soha xodimlariga nisbatan past ish haqi to'lanishi sababli dastlabki o'n yilliklarda ishlar o'ta sust borib, mutaxassislar tanqisligi o'tkir muammo bo'lib qolgan. Hatto Ikkinchi jahon urushidan keyingi modernizatsiya davrida, ya'ni 1970-yillarning ikkinchi yarmiga kelib ham kommunal xo'jalik tizimida shakllangan kadrlar tanqisligi va mutaxassislarning malaka darajasi bo'yicha muammolar to'liq barham topmagan edi[5].

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi fondlaridagi birlamchi hujjatlar va tarixiy ma'lumotlarni ilmiy tahlil qilish orqali respublikada kommunal xizmat ko'rsatish tizimidagi kadrlar muammosining dinamikasi va 1970-yillarning oxiridagi holatini xolis yoritib berishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik, xolislik, qiyosiy-tarixiy, tizimli-strukturaviy, qiyosiy-mantiqiy hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning manbalik poydevorini O'zbekiston Respublikasi Milliy arxividagi 2182-jam'arma O'zbekiston SSR Kommunal xo'jaligi vazirligi hujjatlari, xususan, 5-ro'yxat, 2312-yig'ma jilddagi rasmiy hisobotlar hamda respublika davlat statistika hisobotlari tashkil etadi [1].

O'zbekiston SSRda kommunal xo'jalik tizimining institutsional asoslari 1932-yilda Kommunal xo'jalik xalq komissarligi va uning joylardagi bo'limlari tashkil etilishi bilan solindi[4]. Unga qadar shaharlarga xizmat ko'rsatish tarqoq mahalla va shahar sho'rolari ixtiyorida bo'lib, yagona boshqaruv hamda texnik strategiyaga ega emas edi. 1932-yildan boshlab tizimni shakllantirish jarayonida quyidagi obyektiv va subyektiv qiyinchiliklar yuzaga kelgan:

Birinchidan, injener-texnik xodimlarning yetishmasligi: Respublikada suv quvurlari, kanalizatsiya, elektr va issiqlik tarmoqlari hamda obodonlashtirish yo'nalishida mahalliy kadrlardan iborat mutaxassislar amalda mavjud emas edi.

Ikkinchidan, kadrlar qo'nimsizligi: Mehnat sharoitining og'irligi, ish haqining pastligi hamda ijtimoiy imtiyozlarning yetarli emasligi sababli tizimga kelgan ishchilar tezda boshqa sanoat tarmoqlariga o'tib ketgan.

Uchinchidan, sust rivojlanish sur'atlari: Malakali kadrlar yetishmasligi sababli 1930-1950-yillarda shaharlarda suv va kanalizatsiya tarmoqlarini yotqizish, korxonalarni ekspluatatsiya

qilish hamda ta'mirlash ishlari o'ta sust va rejadagidan ortda qolib amalga oshirilgan [5].

Ushbu tarixiy omillar keyingi o'n yilliklarda ham o'z ta'sirini ko'rsatib, 1970-yillarga kelib ham tizimda ishchi kuchining son jihatdan oshishiga qaramay, uning sifat (malaka) ko'rsatkichlari orqada qolishiga zamin yaratdi. Jumladan, 1932-yildan boshlangan bosqichma-bosqich rivojlanish natijasida, 1978-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston SSR Kommunal xo'jaligi vazirligi tizimida xizmat qiluvchi xodimlar soni 53 672 kishiga yetdi [1]. Biroq kadrlar taqsimotidagi hududiy nomutanosiblik respublika bo'yicha keskinligicha qolayotgan edi.

O'zbekiston SSR kommunal xo'jalik tizimining hududiy jihatdan shakllanishi va kadrlar taqsimotidagi mutanosiblikning buzilishi respublika miqyosida uzoq yillar davomida saqlanib kelgan institutsional muammolardan biri bo'lganligini arxiv statistikasi yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, 1978-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, respublika bo'yicha umumiy xodimlar soni 53 672 nafarni tashkil etgan bo'lsa-da, ularning hududlar bo'yicha taqsimlanishida keskin nomutanosiblik hukmronlik qilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kadrlar salohiyatining salmoqli qismi, ya'ni deyarli uchdan bir qismi (31,63 foizi) bevosita poytaxt va yirik sanoat markazlari bo'lgan Toshkent (8993 kishi) hamda Farg'ona (7986 kishi) viloyatlarida jamlangan edi [2]. Mazkur hududlarda sanoat korxonalarining zichligi, shahar infratuzilmasining nisbatan rivojlangani va boshqaruv idoralarining markazlashgani kommunal xizmat ko'rsatish sohasiga kadrlarni jalb qilish hamda ularni muqim saqlab qolish uchun qulay sharoit yaratgan.

Buning aksincha, respublikaning iqtisodiy jihatdan yangi o'zlashtirilayotgan hududlarida infratuzilma va kadrlar ta'minoti o'ta og'ir ahvolda qolgan. Xususan, 1960–1970-yillarda qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish kompaniyalari doirasida tashkil etilib, shahar tipidagi posyolkalari va yangi tuman markazlari endi barpo etilayotgan Sirdaryo (1772 kishi) hamda Jizzax (1620 kishi) viloyatlarida kommunal tarmoq xodimlarining soni minimal ko'rsatkichlarni tashkil etgan [2]. Bu holat 1932-yilda soha ilk bor mustaqil tarmoq sifatida tashkil etilgan davrdan boshlab poydevori qo'yilgan hududiy infratuzilma tengsizligi o'n yilliklar davomida bartaraf etilmaganini ko'rsatadi. Yangi tashkil topgan hududlarda moddiy-texnik bazaning zaifligi, ijtimoiy-maishiy sharoitlarning og'irligi va malakali mutaxassislarni rag'batlantiruvchi ta'sirchan mexanizmlarning mavjud emasligi kadrlarning hududiy migratsiyasiga va o'tkir taqchillikka sabab bo'lib, oqibatda respublika hududlari o'rtasida kommunal xizmat ko'rsatish sifati va darajasida jiddiy tafovutlarni yuzaga keltirgan.

Kommunal xo'jalik tarmog'i murakkab injenerlik obyektlari (suv tozalash inshootlari, issiqlik elektr markazlari, gaz tarmoqlari) bilan ishlashiga qaramay, xodimlarning umumiy ma'lumot darajasi o'ta past bo'lgan. Xususan, 1978-yilda vazirlik tizimida fidokorona xizmati uchun 79 nafar xodim turli darajadagi orden va medallar bilan taqdirlangan [2]. Ularning ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimoti sohadagi umumiy malaka inqirozini ochib beradi: tizimdagi oliy ma'lumotli xodimlar soni atigi 3 nafar, o'rta maxsus (texnikum) ma'lumotli xodimlar soni 4 nafar, o'rta ma'lumotli xodimlar 66 nafar, boshlang'ich maktab ma'lumotiga ega xodimlar esa 6 nafarni tashkil etgan. Sohaning eng peshqadam va davlat mukofotlariga sazovor bo'lgan xodimlarining atigi 8,86 foizi oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan, xolos [3].

Tizimda amalda boshlang'ich maktab ma'lumotiga ega bo'lgan mukofotlanganlar soni oliy ma'lumotli mutaxassislar sonidan deyarli ikki baravar ko'p bo'lgan. Bu holat 1932-yildan e'tiboran shakllangan "amaliyotchi-ishchilar" hisobiga tarmoqni ushlab turish an'anasi 1970-yillar oxirida ham davom etganini, muhandislik-texnik kadrlarni tayyorlash tizimi zamon talabiga javob bermaganidan dalolat beradi [3].

Mazkur davrda kadrlar siyosatining milliy tarkibi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Garchi mahalliy millat vakillari (o'zbeklar) umumiy ishchilar qatlamida son jihatdan ko'pchilikni tashkil etgan bo'lsada, murakkab texnik, muhandislik va loyihalash ishlari, shuningdek, rahbarlik lavozimlarida rus va boshqa markazdan kelgan mutaxassislar salmog'i saqlanib qolgan edi. Mahalliy kadrlarning texnik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida yetarli darajada qamrab olinmagani mazkur nomutanosiblikning asosiy sabablaridan biri bo'lgan.

Arxiv hujjatlariga ko'ra, Kommunal xo'jaligi vazirligi xodimlariga berilgan 79 ta davlat mukofotlari quyidagicha taqsimlangan: III darajali "Mehnat shuhrati" ordeni bilan 55 nafar, "Mehnatdagi jasorati uchun" medali bilan 12 nafar va "Mehnatda o'rnatilgan ko'rsatkich uchun" medali bilan 12 nafar xodim taqdirlangan [3]. Garchi davlat tomonidan ilg'or ishchilarni rag'batlantirish choralari ko'rilgan bo'lsada, bu kabi ma'muriy rag'batlar tizimdagi malaka yetishmovchiligi, mehnat unumdorligining pastligi va texnik qoloqlik kabi tub muammolarni bartaraf eta olmadi.

1932-yildan to 1970-yillar oxirigacha bo'lgan davrda O'zbekiston SSR Kommunal xo'jaligi vazirligi tizimidagi kadrlar siyosatini tahlil qilish quyidagi ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

Birinchidan, tarixiy sababiyat va sust rivojlanish: 1932-yilda kommunal xizmat alohida tarmoq sifatida ajralib chiqqanidan so'ng kadrlar tayyorlash tizimining zaifligi va texnik mutaxassislar tanqisligi tarmoqning o'n yilliklar davomida sust rivojlanishiga olib kelgan.

Ikkinchidan, tizimli malaka inqirozi: 1970-yillar oxiriga kelib tarmoqdagi xodimlar soni 53 mingdan oshgan bo'lsada, ularning intellektual va ma'lumot darajasi pastligicha qolgan. Mukofotlangan ilg'or xodimlarning 83,55 foizi faqat umumiy o'rta yoki boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lgani sohaning kadrlar salohiyati yetarli emasligini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, hududiy disproportsiya va milliy kadrlar masalasi: Kadrlar resurslari asosan yirik sanoat markazlarida to'planib, yangi o'zlashtirilayotgan hududlarda tanqislik yuzaga kelgan. Shu bilan birga, mahalliy millat vakillarining son jihatdan ustunligiga qaramay, muhandislik-texnik sohada mutaxassislar yetishmagani tarmoqda chuqur institutsional muammolar mavjud bo'lganini ko'rsatadi [3].

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida keltirilgan tarixiy dalillar va statislik ma'lumotlardan kelib chiqib, bugungi kunda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida oliy va o'rta maxsus ma'lumotli muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash ko'lamini kengaytirish, yangi hududlarda mutaxassislarni saqlab qolish uchun ijtimoiy imtiyozlar paketini joriy etish hamda xodimlarning texnik savodxonligini oshiruvchi uzluksiz malaka oshirish tizimini kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi (O'zR MA). R-2182-jamg'arma, 5-ro'yxat, 2312-yig'ma jild, 15-varoq.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi (O'zR MA). R-2182-jamg'arma, 5-ro'yxat, 2312-yig'ma jild, 17-varoq.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi (O'zR MA). R-2182-jamg'arma, 5-ro'yxat, 2312-yig'ma jild, 20-varoq.
4. Xoliqov A.G'. O'zbekistonda shahar va kommunal xo'jaligi tarixi (1960-1980-yillar). – Toshkent: Fan, 2018. – 184 b.
5. Rahimov J.S. O'zbekiston SSRda xalq xo'jaligi kadrlarini tayyorlash masalalari (1970-1985-yillar). – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 210 b.